XALQ DEPUTATLARI KARMANA TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 15-aprel VI-80-45-5-71-K/24 Karmana tumani

Karmana tumanidagi ayrim maydon va qabristonlarga nom berish to‘g‘risida

Tumandagi ayrim maydon va qabristonlarga nom berish yuzasidan tushgan takliflar ko‘rib chiqildi va mazkur takliflar atroflicha muhokama qilinib, O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 11-oktabrda qabul qilingan “Geografik ob’ektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasining “Geografik ob’ektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik ob’ektlarning nomlarini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 295-sonli qaroriga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Karmana tumani “Xo‘ja Xisrav” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi maydonga “Xotira” deb;

“Ziyokor” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi qabristonga “Yahudiylar” deb;

“Ko‘hnaqo‘rg‘on” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi qabristonga “Sulton so‘fi” deb;

“Nurafshon” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi qabristonga “Chillamozor” deb;

“Shibzon” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi qabristonga “Past olchin” deb;

“Kattamachit” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi qabristonga “Nazar Nogir” deb;

“Jaloyir” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi qabristonga “Past Qoraqosh” deb;

“Shibzon” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi qabristonga “Yangiobod” deb;

“Nurafshon” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi qabristonga “Namozbobo” nomlash bo‘yicha mahalla fuqarolar yig‘inlari vakillari tomonidan bergan takliflari ma`qullansin.

2. Tuman statistika bo‘limi (Xasanov), tuman Davlat kadastrlari palatasi Navoiy viloyat boshqarmasi Karmana tuman filiali (Aliqulov), tuman Arxitektura va qurilish bo‘limi (Xolmo‘minov) hamda tegishli mutasaddi va davlat organlariga amaldagi tartibda nom berilgan va nomlari o‘zgartirilgan ko‘chalarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazasini shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirish kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirish vazifasi yuklatilsin.

3. Tuman arxitektura va qurilish bo‘limi (Xolmo‘minov), Karmana tuman “Obodonlashtirish” boshqarmasi (Sadullayev) ga hududlarda yangi nomlangan maydon va qabristonlarning nomlari yozilgan ko‘rsatkich va belgilar, peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida bosqichma-bosqich o‘rnatilishini ta’minlansin.

4. Belgilansinki, geografik ob’ektlarning nomlari sohasidagi ishlarini moliyalashtirish mahalliy budjet mablag‘lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

5. “Karmana ovozi” gazetasi (Jo‘rayev) ushbu qarorning gazeta sahifasida rasman e’lon qilishi hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiya (Nosirova)ga va qaror ijrosini ta’minlash geografik ob’ektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish masalalari bo‘yicha tuman komissiyasi (B.Xamrayev) zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Sessiyada raislik qiluvchi SHERMATOVA GULNOZA ABDUXAKIMOVNA